FARG‘ONA VILOYATI BESHARIQ TUMANI HOKIMI QARORI

2024 - yil 2 - aprel 69-11-153-Q/24 Beshariq tumani hokimligi

Beshariq tumani Andarxon MFY hududidan o‘tuvchi A-376-“Qo‘qon-Jizzax” xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo‘lining 42-43 km lar oralig‘iga “3.24. “Yuqori tezlik cheklangan” taqiqlovchi yo‘l belgisini o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-maydagi 377-son “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2019-yil 9-apreldagi 292-sonli “Yo‘l harakati qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarorlari ijrosini ta’minlash, Beshariq tumani IIB YHXGning 2023-yil 28-noyabr kungi 61-sonli xatiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 25-moddalariga asoslanib,

Q A R O R Q I L A M AN

1. Tuman IIB YHXGning 2023-yil 28-noyabr kungi 61-sonli xati hamda tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining 2023-yil 11-dekabr kungi 296-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Andarxon MFY hududidan o‘tuvchi A-376-“Qo‘qon-Jizzax” xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo‘lining 42-43 km lar oralig‘iga “3.24. “Yuqori tezlik cheklangan”. (Belgida ko‘rsatilganidan ortiq tezlikda (km/s) harakatlanish taqiqlanishini bildiradi.) taqiqlovchi yo‘l belgisini o‘rnatsin.

3.Yo‘l belgisini o‘rnatish ishlarini belgilangan tartibda amalga oshirish Tuman IIB YXH bo‘limi hamda tuman Yo‘llardan muntazam foydalanish unitar korxonasi zimmasiga yuklatilsin.

4.“Beshariq Tongi” gazetasi tahririyati mazkur qaror rasman kuchga kirishi bilan keng jamoatchilik o‘rtasida va ommaviy axborot vositalari orqali yoritilishini ta’minlasin.

5.Tuman Ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limiga yuqorida qayd

etilgan manzilga “3.24. “Yuqori tezlik cheklangan” taqiqlovchi yo‘l belgisi o‘rnatilgach, ushbu yo‘l belgisiga qat’iy rioya qilinishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

6.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari I.Eshmatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **R.K.Jo'rayev**